



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATI CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2021- yil yanvar-may holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha, 2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7 228,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 106,9 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 448,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,2 %ni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 780,9 mlrd. so'mni (108,2 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 661,6 mlrd. so'mni (130,5 %ni) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7 228,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 106,9 %ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 80,0 % va yirik korxonalar hissasi 20,0 %ga to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib jamiga nisbatan 40,5 %ni yoki 2 931,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Paxtachi tumanida 1,9 % yoki 140,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 5 780,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 8,2 %ga ko'paydi. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 80,0 %ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,9 %) va Jomboy (99,0 %), Nurobod (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,9 %), Ishtixon (98,7 %), Narpay (98,6 %), Qo'shrabot (98,6 %) va Payariq (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'ldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toyloq tumanida (111,2 %), Jomboy (111,6 %) va Payariq (110,7 %) tumanida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	7 228,9	106,9	1 448,0	102,2	5 780,9	108,2
Samarqand shahri	2 931,3	104,1	1 342,7	102,8	1 588,6	105,3
Kattaqo'rg'on shahri	498,0	109,5	0,6	105,0	497,4	109,5
tumanlar:						
Oqdaryo	189,6	109,3	3,8	125,3	185,8	109,0
Bulung'ur	317,2	106,2	8,6	18,8	308,6	122,1
Jomboy	249,1	111,6	2,6	95,9	246,5	111,8
Ishtixon	241,1	108,2	3,3	98,0	237,9	108,3
Kattaqo'rg'on	309,2	109,7	3,4	113,1	305,9	109,7
Qo'shrabot	140,9	109,4	1,9	109,1	139,0	109,4
Narpay	213,4	106,2	2,9	107,8	210,5	106,2
Payariq	283,7	110,7	3,8	100,0	279,9	110,8
Pastdarg'om	401,2	108,5	21,1	145,9	380,1	107,0
Paxtachi	140,0	110,1	2,8	111,8	137,2	110,1
Samarqand	266,8	108,1	6,3	179,8	260,5	107,1
Nurobod	156,9	109,2	1,9	119,2	154,9	109,1
Urgut	693,9	108,2	16,9	123,6	676,9	107,8
Toyloq	196,6	111,2	25,4	3,1 m.	171,2	101,5


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,2 %ga o'sdi va 1 448,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 20,0 % ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 5 780,9 mlrd. so'mni va 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 108,2 %ni tashkil etdi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,0 %ni tashkil etdi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Jomboy (99,0 %), Nurobod (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,9 %), Ishtixon (98,7 %), Qo'shrabot (98,6 %) va Payariq (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 20,0 %ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (45,8 %), Bulung'ur (2,7 %), Toyloq (12,9 %) va Pastdarg'om (5,3 %) tumanlarida kuzatildi.




SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOJI JON BOSHLIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may

2021- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 827,7 ming so'm (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 105,0 %ni tashkil etdi) va viloyatning ayrim hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toyloq (108,7 %), Paxtachi (108,6 %), Nurobod (107,2 %), Kattaqo'rg'on (108,0 %), Jomboy (109,0 %) va Payariq (108,5 %) tumanlarining hissasiga to'g'ri keldi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng quyi hajm Ishtixon tumanida (932,1 ming so'm), Toyloq tumanida (956,2 ming so'm) va Paxtachi tumanida (958,5 ming so'm) kuzatildi.




	Hajm, Ming so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	1 827,7	105,0
Samarqand shahri	5 300,6	103,0
Kattaqo'rg'on shahri	5 490,8	108,3
tumanlar:		
Oqdaryo	1 170,2	107,2
Bulung'ur	1 670,5	104,4
Jomboy	1 412,0	109,0
Ishtixon	932,1	106,2
Kattaqo'rg'on	1 115,5	108,0
Qo'shrabot	1 053,9	107,5
Narpay	989,3	104,8
Payariq	1 112,2	108,5
Pastdarg'om	1 112,6	106,5
Paxtachi	958,5	108,6
Samarqand	1 038,5	106,1
Nurobod	1 025,3	107,2
Urgut	1 333,1	105,6
Toyloq	956,2	108,7

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 661,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 130,5 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 153,3 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 83,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 508,3 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 157,7 %)ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

661,6 mlrd. so'm, 100 %


Dehqon bozorlari

**153,3 mlrd. so'm,
23,2 %**

Chorva bozorlari

**508,3 mlrd. so'm,
76,8 %**

Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA
(PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI**

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may

2021- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligidagi yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 153,3 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 508,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagisi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagani holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligidagi o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	661,6	130,5	153,3	83,0	508,3	157,7
Samarqand shahri	18,2	102,6	16,9	74,6	1,3	12,3
Kattaqo'rg'on shahri	151,9	133,4	15,6	45,0	136,3	249,3
tumanlar:						
Oqdaryo	46,9	135,1	4,7	54,0	42,2	203,4
Bulung'ur	49,1	123,6	16,0	131,8	33,1	128,2
Jomboy	70,2	154,5	13,2	110,2	57,0	230,3
Ishtixon	37,1	133,8	5,1	56,4	32,0	179,5
Kattaqo'rg'on	52,5	134,1	16,7	132,2	35,8	155,0
Qo'shrabot	27,4	184,3	5,3	78,6	22,1	2,1 m.
Narpay	12,9	101,2	12,1	148,3	0,8	14,4
Payariq	62,9	121,7	22,8	165,5	40,1	135,8
Pastdarg'om	23,3	119,2	3,6	49,9	19,7	93,6
Paxtachi	26,7	149,5	4,8	77,3	21,9	144,9
Samarqand	14,9	87,2	0,4	10,2	14,5	111,3
Nurobod	25,4	126,1	8,7	119,5	16,7	107,5
Urgut	22,7	130,3	5,5	40,2	17,2	77,1
Toyloq	19,5	113,3	1,9	34,4	17,6	149,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



Tuzlamalar



41,2
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)




Non va non
mahsulotlari



Sut va sut
mahsulotlari



Tuxum



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 153,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (41,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



1,9
mlrd. so'm

Ziravorlar



20,4
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



1,2
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2021- yilning yanvar-may oylarida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 508,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 378,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 69,1 mlrd. so'mni, otlar 56,9 mlrd. so'mni, parrandalar 3,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 %ni tashkil etib, 184,3 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 117,4 %ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 69,9 %lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar –may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	184,3	117,4	55,4	149,2	128,9	107,6
Samarqand shahri	110,3	99,1	25,9	75,7	84,3	109,4
Kattaqo'rg'on shahri	4,0	95,8	0,0	0,0	4,0	95,8
tumanlar:						
Oqdaryo	0,5	94,5	0,0	0,0	0,5	94,5
Bulung'ur	4,5	136,8	1,7	2,3 m.	2,8	108,7
Jomboy	2,9	111,9	0,0	0,0	2,9	111,9
Ishtixon	1,0	104,9	0,0	0,0	1,0	104,9
Kattaqo'rg'on	1,9	120,5	0,0	0,0	1,9	120,5
Qo'shrabot	1,2	112,4	0,0	0,0	1,3	112,4
Narpay	1,7	102,2	0,0	0,0	1,7	102,2
Payariq	2,3	120,1	0,0	0,0	2,3	120,1
Pastdarg'om	14,3	125,8	4,7	2,5 m.	9,6	101,6
Paxtachi	0,9	113,6	0,0	0,0	0,9	113,6
Samarqand	6,6	101,7	0,3	160,2	6,3	100,3
Nurobod	0,9	112,1	0,0	0,0	0,9	112,1
Urgut	3,3	104,3	0,07	164,4	3,2	103,4
Toyloq	28,0	5,3 m.	22,7	0,0	5,4	101,2

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may



2020- yil yanvar-may oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumi ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,27 %dan 0,31 %ga ko'paygan.

Umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi 184,3 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 117,4) va mulkchilik shakllari bo'yicha 183,7 mlrd. so'm (99,69 %) nodavlat mulk, 0,6 mlrd. so'm (0,31 %), davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (0,31 %)ga to'g'ri kelmoqda.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	184 280,8	100,0	183713,3	99,69	567,5	0,31
Samarqand shahri	110 255,2	59,8	109687,7	99,69	567,5	0,31
Kattaqo'rg'on shahri	3 969,9	2,1	3 969,9	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	520,0	0,3	520,0	100,0	-	-
Bulung'ur	4 520,4	2,4	4 520,4	100,0	-	-
Jomboy	2 929,0	1,6	2 929,0	100,0	-	-
Ishtixon	1 018,7	0,6	1 018,7	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	1 872,1	1,0	1 872,1	100,0	-	-
Qo'shrabot	1 250,2	0,7	1 250,2	100,0	-	-
Narpay	1 695,8	0,9	1 695,8	100,0	-	-
Payariq	2 298,5	1,2	2 298,5	100,0	-	-
Pastdarg'om	14 335,5	7,8	14 335,5	100,0	-	-
Paxtachi	858,4	0,5	858,4	100,0	-	-
Samarqand	6 561,8	3,6	6 561,8	100,0	-	-
Nurobod	891,9	0,5	891,9	100,0	-	-
Urgut	3 270,7	1,8	3 270,7	100,0	-	-
Toyloq	28 032,7	15,2	28 032,7	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 622,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 93,3 %ni taskil etdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 960,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 92,5 %ni), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1662,5 mlrd. so'mni (93,7 %ni) va jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 63,4 %ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo	2,6 trln. so'm, 100 %
Yirik korxonalar	1,0 trln. so'm, 36,6 %
Mikrofirmalar	0,9 trln. so'm, 36,1 %
Kichik korxonalar	0,7 trln. so'm, 27,3 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari yirik korxonalar bo'yicha Kattaqo'rg'on shahrida (2,2 marta) va Bulung'ur (5,7 marta), Tayloq (1426,4 marta), Kattaqo'rg'on (3,4 marta) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (61,1 %) va Toyloq (9,1 %), Samarqand (5,7 %) Pastdarg'om (4,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viyoyati	2 622,6	93,3	960,136	92,5	1662,5	93,7
Samarqand shahri	1 603,0	92,1	691,636	85,9	911,4	97,4
Kattaqo'rg'on shahri	72,7	99,9	0,259	2,2 m.	72,4	99,7
tumanlar:						
Oqdaryo	44,9	99,8	0,284	180,9	44,6	99,5
Bulung'ur	94,6	2,5 m.	79,082	5,7 m.	15,5	63,1
Jomboy	63,4	102,6	0,02	8,9	63,4	102,9
Ishtixon	24,7	87,6	0,548	6,8	24,1	120,2
Kattaqo'rg'on	46,5	106,0	1,712	3,4 m.	44,8	103,3
Qo'shrabot	4,7	105,8	0,086	110,3	4,6	105,8
Narpay	25,6	128,6	13,725	147,9	11,9	111,6
Payariq	50,0	85,4	0,483	2,6	49,6	123,8
Pastdarg'om	106,9	49,6	57,161	32,9	49,7	119,2
Paxtachi	7,4	56,7	0,549	7,0	6,8	133,5
Samarqand	149,8	113,8	0,2	82,1	149,6	113,9
Nurobod	9,1	103,2	0,065	59,5	9,1	103,8
Urgut	81,1	108,1	0,669	2,3 m.	80,4	107,6
Toyloq	238,2	93,6	113,657	1426,4 m.	124,6	49,0


YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

SAMARQAND VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-may



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 1 662,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 93,7 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 63,4 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand tumani (99,9 %), Urgut (99,2 %), Payariq (99,0 %), Oqdaryo (99,4 %), Jomboy (100,0 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,6 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Bulungur (16,4 %), Narpay (46,4 %) va Pastdarg'om (46,5 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 66-230-45-23,
66-235-65-80